

**ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDA
TARBIYA VA ODOB AXLOQ HAQIDAGI FIKRLAR**

Zayniddinova Sevinch Jaloliddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPUProfessional ta’lim fakulteti

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi

202-bosqich talabasi

e-mail: szayniddinova199@gmail.com

Telefon: +99895 0119904

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10429297>

***Annotatsiya.** Ushbu maqola atoqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning ijtimoiy faoliyati va ijtimoiy qarashlarida ma’rifatparvarlikning o’rni, shuningdek, uning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga oid qarashlari, ta’lim-tarbiyaning millat ma’naviyati, ma’rifatini yuksaltirishdagi ahamiyati va kelajak avlodni, millatni ma’naviyatli, ma’rifatli, komil qilib tarbiyash kabi masalalarning qisqacha tahliliga bog’ishlanadi.*

***Kalit so’z:** Pedagogika, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifatparvarlik, jadidchilik, yangi usul maktablari.*

**THOUGHTS ON EDUCATION AND MORALS IN THE WORK OF ABDULLA
AVLONI "TURKISH GULISTAN OR MORALITY".**

***Abstract.** This article describes the role of enlightenment in the social activities and social views of the famous enlightened writer Abdulla Avloni, as well as his views on spiritual and educational education presented in his work “Turkiy Guliston yoxud axloq” education and education in the nation. It will be devoted to a brief analysis of issues such as the importance of raising spirituality and enlightenment and raising the future generation, the nation, to be spiritual, enlightened, and perfect.*

***Keywords:** Pedagogy, education, ethics, enlightenment, modernism, new method schools.*

**МЫСЛИ ОБ ОБРАЗОВАНИИ И НРАВСТВЕННОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ
АБДУЛЛЫ АВЛОНИ «ТУРЕЦКИЙ ГУЛИСТАН ИЛИ МОРАЛЬ».**

***Аннотация.** В данной статье описывается роль просветительства в общественной деятельности и общественных взглядах известного писателя-просветителя Абдуллы Авлони, а также его взгляды на духовно-просветительское воспитание, изложенные в его труде «Турецкий Гулистан или Нравственность», воспитание и воспитание в нации. Он будет посвящен краткому анализу таких вопросов, как важность повышения духовности и просвещения, воспитания будущего поколения, нации духовными, просвещенными и совершенными.*

***Ключевые слова:** Педагогика, образование, нравственность, просвещение, модернизация, школы нового метода.*

Ma’lumki, inson barkamolligi uning tashqi ko’rinishiga qarab emas, balki uning ma’naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi ana shu jamiyatda yashovchilarning ma’naviy kamolotiga bog’liq.

Zero, ma'naviy qashshoq insonlar bilan kelajagi porloq jamiyat qurib bo'lmashligi hayot haqiqatidir. Barkamol insonni tarbiyalash vazifasi esa muayyan darajada maktab zimmasiga yuklatilgan. Demak, ertangi kun egalari bo'lmish farzandlarimiz kamoloti ana shu ilm maskani bilan bog'liq. Bas, shunday ekan, butun e'tiborimizni maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishiga qaratmog'imiz lozim. Bu esa, asosan, tarbiyachi-murabbiyga, u olib borayotgan tarbiyaviy ish samaradorligiga bog'liq. Odamlar o'rtasida mehr-oqibat, haqiqiy insoniy munosabatlarni qaror toptirishda sinf tarbiyaviy soatlari xushaxloqlik tarbiyasi saboqlari – katta ahamiyatga ega. Zero, yaxshi tarbiya insonning bebaho boyligidir.

Tarbiya vositasida yosh avlodni yetuk insonlar qilib yetishtirish oldimizda turgan eng dolzarb mavzulardan biridir.

Maktab milliy madaniyat, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz asoslarini o'rgatadigan asosiy maskandir. Zotan, o'zligini, o'z ajdodlari kim ekanligini, o'z tili, o'z milliy madaniyati va tarixini, qadriyatlarini, urf-odatlarini va an'analarni, tarixiy ma'naviy merosini bilmay turib haqiqiy baynalmilal inson bo'lish ham mumkin emas.

Jumladan, o'z vataniga, o'z millatiga – xalqiga sadoqat, fidoyilik, bag'rikenglik, adolatlilik, kamtarlik, mehr-muruvvatlilik, o'zligini anglash, sevgi, vafo, ilmga chanqoqlik, yuksaklikka intilish, mehnatsevarlik, bardoshlilik, sabr-qanoat, saxovatlilik, jasoratlilik, ogohlik, turli illatlarga qarshi kurashuvchanlik, andishalilik, mehmonnavozlik, do'stlik va birodarlikni ulug'lash, avlod-ajdodlariga cheksiz hurmat-ehtiram, o'z millati, tilini va qadriyatlarini avaylab-asrash kabilar millatimizga xos xususiyatlardir.

1913-yilda quyida keltirilgan xususiyatlarni o'zida jamlagan A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bosilib chiqdi. Ushbu asarida Abdulla Avloniy tarbiyada bolalarning fikrini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor bilan qaratadi. Negaki, fikrlash iqtidorini egallash oliyjanob g'oyalar tomon intilish demakdir. Shunday ekan, aqlli odamning axloqsiz bo'lishi qiyin. Avloniy ana shu ikki tushunchalarni yaqin va birlikda ko'radi.

Nihoyat, gap xulqqa kelib taqaladi. Avloniy ularni ikkiga – yaxshi va yomon xulqqa ajratadi.

Muallifning fikricha, aql bilan ish tutish – fatonat, sa'y-g'ayrat, shijoat, ilm egallash, pokizalik, nazokat, sabr-toqat, intizom, vijdonli bo'lish, vatanni sevis, haqtalablik, hamma narsaga ibrat ko'zi bilan qarash, hayo, iffat, til odobi, idrok va zako, munislik va xayrixohlik, sadoqat, adolat, muhabbat, afv kabilarni yaxshi xulq sirasiga kiritadi va mukammal inson uchun zarur bo'lgan fazilatlar deb hisoblaydi. Adib bularning har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tadi. O'z mulohazalarini dalillash uchun Aristotel, Platon, Gippokrat, Sa'diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Adib har bir axloqiy kategoriyaga o'z munosabatini bildirganda, albatta, o'sha fikrini ifodalovchi bayt yoki biror maqol-hikmat ilova qiladi.

"Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz", - demishlar.

Xulqi yomon yuz, ko'zlidin na sud
Yuz, ko'zli xulqni qilmas kashud
Xulq mariziga davo istasang,
Marg davosin berilur qistasang.
Xulqi yomonning keturar ko'p zarar

Xulqing o‘zi boshingga kaltak urar.
Xulqi fano bo‘lsa degil alhazar,
Xor-u zalilikda qolur darbador.

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikga tavsif bo‘lub “yomon xulq” deb atalur.

Avloniy shu bilan birga, so‘zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi rolga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho beradi. So‘zning ma‘nosiga alohida diqqat qildi. Til va so‘z odobiga oid umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi. “So‘z insonning daraja va kamoloni, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozisidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar...”

“Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lib, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqaradurg‘on bo‘lmasa, asalarilar orasidan go‘ng‘illab yurgan qovog‘arilar kabi quruq g‘o‘ng‘illamoq faqat bosh og‘rig‘idan boshqa narsa emasdir. Boshimizga keladurg‘on qattiq kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “Ko‘p o‘yla, oz so‘zla” – demishlar”.

Insonni bezaydigan sifatlar ko‘p. Chinakam inson yalqovlik va dangasalikni o‘ziga nomus deb biladi. Yoshligidan ilm, ma‘rifatga, hunar va san‘atga mehr qo‘yadi. Mehnatning aybi yo‘q. Qora ishchi bilan olimning zahmati ko‘rinishidagina tafovutli. Ammo ularning har ikkisi ham mehnat qiladi. Mehnat bilan kun kechirish esa buyuk saodat. Aksincha “... bu ko‘murchilik, bu temirchilik – manga munosib ish emas, deb dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo‘r ayb, g‘ayratsizlikdur...”

Shuningdek, inson moddiy ne‘matlarni yaratishdan tashqari, ularning qadriga ham yeta bilmog‘i kerakligi haqida to‘xtaladi.. Bular o‘zaro juda yaqin, biri ikkinchisidan kelib chiqadurg‘on tushunchalardir. Kimki bir parcha nonni mehnat bilan topsa, uning qadriga ham yetadi. Bu haqda adib quyidagi fikrni bayon etgan edi: “Iqtisod deb pul va mol kabi ne‘matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o‘rni kelganda so‘mni ayamas. Saxovatning ziddi baxillik o‘ldig‘i kabi iqtisodning ziddi isrofdur...”.

Avloniyning “Hayo dilni ravshan qiladurg‘on bir nurdurki, inson har vaqt shul ma‘naviy nurning ziyosiga muhtojdir” degan fikri ham o‘rinli bolib, unda ma‘naviy nurning ziyosi shu Zero, Hazrati Luqmon: “Iffat nomusning eng mahkam suyanchig‘idir. Nafsning hujumiga shul quvvat ila muqobala qilinur” deydi.

xulq haqida so‘z yuritganda masalaga shunchaki, umumiy yondashib qo‘ya qolmay, balki aniq gap aytishga intiladi. Adibning diqqat markazida hamisha insoniylik mezoni turadi. Bu mezon esa doimo keng omma manfaatlari nuqtayi nazarini ifoda etadi.

Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma‘noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligini uqtiradi. “Turkiy guliston yoxud axloq “asari ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Adib kitobda ilm haqida shunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur”, - deydi. Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta‘lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma‘naviyatimiz

rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

REFERENCES

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yoxud axloq. T., 2008.
2. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent., 2004.
3. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.
4. Mirzayev S. O'zbek adiblari. "Fan". 2002.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T., 2008.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yoxud axloq. T., 2008.
7. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent., 2004.
8. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.
9. Mirzayev S. O'zbek adiblari. "Fan". 2002. 5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T., 2008